

**ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O'LKASIDA
GENERAL-GUBERNATORLIK BOSHQARUV TIZIMINING
SHAKLLANISHI VA UNING MAHALLIY IJTIMOIY-SIYOSIY
TUZILMALARGA TA'SIRI (1867–1917)**

Muallif: Xayrillo Yo'lchiyev Mahmudillo o'g'li

Namseoul Universiteti , 2-bosqich talabasi

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston general-gubernatorligi, mustamlaka boshqaruvi, mahalliy jamiyat, siyosiy cheklov, jadidchilik, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar.

Muammo va mavzuning dolzarbligi

XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga qarshi yuritgan harbiy-ekspansion siyosati natijasida Turkiston o'lkasi bosib olinib, 1867-yilda maxsus mustamlaka-harbiy hudud – Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Ushbu boshqaruv shakli nafaqat Rossiya imperiyasi manfaatlariga xizmat qilgan, balki mahalliy ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarni izdan chiqarib, an'anaviy boshqaruv tizimlarining yemirilishiga sabab bo'lgan. Mavzuning dolzarbligi – mustamlakachilik siyosatining tub mohiyatini ochib berish va uning oqibatlarini hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'lay olish imkoniyatidadir.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Ushbu tadqiqotning maqsadi – Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan general-gubernatorlik boshqaruv tizimining Turkistondagi tuzilishi, faoliyati va mahalliy jamiyat hayotiga ko'rsatgan ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Asosiy vazifalar:

1. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topishining tarixiy shart-sharoitlarini aniqlash;
2. Boshqaruv tuzilmasi, vakolatlari va huquqiy asoslarini o'rghanish;
3. Mahalliy aholi bilan o'zaro munosabatlar shaklini tahlil qilish;
4. Ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarning jadallahsuvi, xususan jadidchilik harakatining shakllanishi bilan bog'liqligini asoslash

Asosiy natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiston general-gubernatorligi Rossiya imperiyasining boshqa mustamlaka hududlariga nisbatan yanada qat'iy harbiy-avtoritar boshqaruv tizimi asosida faoliyat yuritgan. Uning tuzilmasi markazlashgan holda imperator irodasiga bo'ysundirilgan va fuqarolik boshqaruv elementlari cheklangan. Mahalliy elita qatlamlari chetlashtirilgan, vakolatlari sun'iy tarzda qisqartirilgan. Bu esa ijtimoiy norozi kayfiyatlarning ortishiga, milliy o'zlikni anglash harakatlarining kuchayishiga, xususan jadidchilik g'oyalarining shakllanishiga zamin

yaratgan.

Xulosa

Rossiya imperiyasining Turkistondagi general-gubernatorlik boshqaruv tizimi o‘lka taraqqiyotiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatgan: bir tomondan, markaziy hokimiyat nazorati kuchaygan, infratuzilmaviy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa, boshqa tomondan esa, mahalliy aholi siyosiy va huquqiy imkoniyatlardan cheklangan holda milliy uyg‘onish bosqichiga yetib kelgan. Mazkur tarixiy tajriba mustamlakachilik boshqaruvining mohiyati va natijalarini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi.